



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING QARORI

2025-yil 30-dekabr

269-11-163-Q/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Tumandagi mavjud fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilar sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi maydonlarida tuproqning agrokimyoviy kartogramma ma‘lumotlarini tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo‘jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risi”da 2019-yil 14-martdagi PQ-4239-son qarori va “Qishloq xo‘jaligida tuproqning agrokimyoviy tahlil tizimini takomillashtirish, ekin yerlarida tuproqning unumdorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 18-iyundagi 510-son Qarori ijrosini ta‘minlash maqsadida 2023-yilda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi buyurtmasiga asosan O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi Respublika agrokimyoviy tahlil markazining Farg‘ona viloyat agrokimyoviy tahlil markazi tomonidan Farg‘ona tumanidagi mavjud fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilarining sug‘oriladigan qishloq xo‘jaligi maydonlarida tuproqning agrokimyoviy kartogrammalarini tuzish bo‘yicha tayyorlangan hujjatlarni ko‘rib chiqib,

QAROR QILAMAN:

1. O‘simliklar karantini va himoyasi agentligi huzuridagi Respublika agrokimyoviy tahlil markazining Farg‘ona viloyat agrokimyoviy tahlil Markazi tomonidan 2025-yilda tayyorlangan tumandagi mavjud fermer xo‘jaliklari va boshqa yerdan foydalanuvchilarning sug‘oriladigan yerlarida tuproq agrokimyoviy tadqiqot ishlarini bajarish va agrokimyoviy kartogrammalar ma‘qullansin.

2. Hududlarda tarqalgan sug‘oriladigan tuproqlar tarkibidagi gumus, harakatchan fosfor va almashinuvchi kaliy miqdorlarini nazorat

qilib borish tuman O'simliklar karantini va himoyasi bo'limi boshlig'i I.Raximovga yuklatilsin.

3. Mazkur qarorga muvofiq tumandagi qishloq xo'jaligi yer maydonlariga mineral o'g'itlardan tuproqning holati va ekin turiga muvofiq konturlar kesimida tabaqalashtirib foydalanish tizimini yo'lga qo'yish tuman qishloq xo'jalik bo'limi boshlig'ining 1-o'rinbosari B.Burxonov zimmasiga yuklatilsin.

4. Tuman hokimining qishloq va suv xo'jaligi masalalari bo'yicha o'rinbosari-tuman qishloq xo'jaligi bo'limi boshlig'i v.v.b (B.Burxonov), qishloq xo'jaligi sohasidagi mas'ul tashkilotlar bilan birgalikda:

-tumanda qishloq xo'jaligi yerlari tarkibidagi mineral o'g'itlar miqdorini me'yorlashtirish borasida tushintirish va seminar mashg'ulotlarini o'tkazishni tashkillashtirsin.

5. Tuproqlarning agrokimyoviy ma'lumotlari 2026-yil 1-yanvardan foydalanish uchun tatbiq etilsin.

6. Ushbu qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o'rinbosari B.Burxonov zimmasiga yuklatilsin.

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T